| <b>Suyumov Jo'rabek Yunusaliyevich</b>                                                                                                                               |     |



|                                                                                                                                                                                                           |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Oila va xotin-qizlar tizimida kollaborativ madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari .....                                                                                                                   | 783 |
| <i>Tojibayeva Nazokatxon</i>                                                                                                                                                                              |     |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkurini rivojlantirishda interfaol metodlarning o'rni .....                                                                                                        | 787 |
| <i>To'xtasinova Nigoraxon Azizxon qizi</i>                                                                                                                                                                |     |
| Oliy o'quv yurtlarida analitik kimyo fanini o'qitishning samaradorlik ko'rsatkichlari .....                                                                                                               | 793 |
| <i>Umrbekova Maftuna Ulug'bek qizi</i>                                                                                                                                                                    |     |
| Antroposentrik yondashuv asosida o'quvchilarda insonparvarlik fazilatlarini shakllantirish yo'llari .....                                                                                                 | 796 |
| <i>Xamidova Nigora Ibrohimovna</i>                                                                                                                                                                        |     |
| Обучение говорению на русском языке абитуриентов с помощью настольных игр .....                                                                                                                           | 800 |
| <i>Абдулахадова Шохид</i>                                                                                                                                                                                 |     |
| Особенности педагогической деятельности и их виды .....                                                                                                                                                   | 803 |
| <i>Мавжудова Ш. С., Мирходжаева Д.</i>                                                                                                                                                                    |     |
| Развитие критического мышления младших школьников на уроках читательской грамотности .....                                                                                                                | 808 |
| <i>Мухаммадиева Марифат Мурод кизи</i>                                                                                                                                                                    |     |
| Искусство подбора слов: стилистические и семантические возможности перифраз .....                                                                                                                         | 811 |
| <i>Юлдашева Дилноза Бекмуродовна</i>                                                                                                                                                                      |     |
| Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida talabalarda refleksiv tafakkurni rivojlantirishning vazifalari va pedagogik imkoniyatlari .....                                                                | 815 |
| <i>Abdullayeva Ziroatxon Qurbonovna</i>                                                                                                                                                                   |     |
| The Human Factor in AI-Mediated English Instruction: Balancing Technology and Pedagogical Expertise .....                                                                                                 | 818 |
| <i>Ikramova Aziza Aminovna</i>                                                                                                                                                                            |     |
| Madaniyat tushunchasi va uni xorijiy til o'qitishda o'rganish zarurati .....                                                                                                                              | 823 |
| <i>Ma'murova Farangiz Ne'matovna</i>                                                                                                                                                                      |     |
| O'quvchilarda tanqidiy tafakkurni shakllantirish: zamonaviy pedagogik yondashuvlar va ularning samaradorligi .....                                                                                        | 827 |
| <i>Ostonova Ma'mura Ulug'bek qizi</i>                                                                                                                                                                     |     |
| Ko'zi ojiz boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentsiyasini o'rganishning nazariy asoslari .....                                                                                         | 830 |
| <i>Qarshiboyev Asliddin</i>                                                                                                                                                                               |     |
| Farzand tarbiyasida ota-onaning pedagogik-psixologik malakalari .....                                                                                                                                     | 834 |
| <i>Xojimirzayeva Shaxnoza Shokir qizi</i>                                                                                                                                                                 |     |
| Darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarni kasb-hunarga yo'llashning tashkiliy-ilmiy asoslari .....                                                                                                   | 839 |
| <i>Xolmatov Pardaboy Qoraboevich</i>                                                                                                                                                                      |     |
| Методология типологического и сравнительного анализа детского фольклора .....                                                                                                                             | 844 |
| <i>Азмиева Э. Э.</i>                                                                                                                                                                                      |     |
| Мaktabgacha ta'lim elementar matematik tushunchalarni rivojlantirish zarurati .....                                                                                                                       | 851 |
| <i>Xoldarova F. M.</i>                                                                                                                                                                                    |     |
| Multimadaniy muhitda pedagoglarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish mexanizmlari .....                                                                                                    | 854 |
| <i>Gulyamova Nafisa Burikulovna</i>                                                                                                                                                                       |     |
| Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyat tushunchalarini shakllantirishda oila va mahallaning roli .....                                                                                            | 858 |
| <i>Rizayeva Xusniya Ubayevna</i>                                                                                                                                                                          |     |
| Raqamli pedagogika: zamonaviy ta'limda innovatsion texnologiyalar roli .....                                                                                                                              | 861 |
| <i>Maxmudova Dilnoza Xaytmirzaevna</i>                                                                                                                                                                    |     |
| Badiiy adabiyot – maktabgacha yoshdagi bolalarda estetik dunyoqarashni shakllantiruvchi omil sifatida .....                                                                                               | 865 |
| <i>Xujamberdiyeva Shahnoza Kupaysinovna</i>                                                                                                                                                               |     |
| Yangi O'zbekistonda inklyuziv ta'lim islohatlar bosqichida .....                                                                                                                                          | 868 |
| <i>Boyqulov Azamat Maxram o'g'li</i>                                                                                                                                                                      |     |
| Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor o'rinbosarlarining menejerlik ko'nikmalarini rivojlantirishning xorijiy tajribasi va uni mahalliy sharoitda qo'llash imkoniyatlari .....                        | 871 |
| <i>Maxamadaliyeva Ezoza Rustamxo'ja qizi</i>                                                                                                                                                              |     |
| Oliy badiy pedagogik ta'lim muassasasida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini maktab o'quvchilarida illyustrativ rasm ishlashga oid kompetensiyalarini shakllantirishga tayyorlashning mazmuni ..... | 875 |
| <i>Sobirov Sarvar Tursunmurotovich</i>                                                                                                                                                                    |     |

# PEDAGOGIKA OLIY O'QUV YURLARIDA UMUMIY YER BILIMI FANIDAN AMALIY MASHG'ULOTLAR TIZIMINI KASBIY FAOLIYATGA YO'NALTIRISHNING DOLZARB MASALALARI

Sultanova N. B.

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy  
pedagogika universiteti dotsenti, p.f.f.d. (PhD)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bo'lajak geografiya o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda Umumiy Yer bilimi fanidan tashkil etiladigan amaliy mashg'ulotlarning ahamiyati yoritib berilgan. Maqolada pedagogika oliy o'quv yurtlarida Umumiy Yer bilimi fanidan amaliy mashg'ulotlar o'tkazishning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq qilish dolzarb muammo sifatida tahlil qilinadi. Shuningdek, bo'lajak geografiya o'qituvchilarini innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirish, amaliy topshiriqlarni samarali tashkil etish hamda talabalarning kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorligini shakllantirishga doir vazifalar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Umumiy Yer bilimi, geografiya, amaliy mashg'ulot, ilmiy-metodik faoliyat, kasbiy-pedagogik faoliyat, o'qituvchi.

**Abstract:** This article highlights the significance of practical classes in the subject General Earth Science in preparing future geography teachers for their professional activities. The paper examines the scientific and methodological foundations for conducting practical sessions in General Earth Science at pedagogical universities and analyzes current issues and their possible solutions. Special attention is given to improving the system of preparing future geography teachers for innovative pedagogical activity, designing effective practical tasks, and developing students' professional-pedagogical competence.

**Key words:** General Earth Science, geography, practical training, scientific-methodological activity, professional-pedagogical activity, teacher.

**Аннотация:** В данной статье раскрывается значение практических занятий по дисциплине Общее землеведение в процессе подготовки будущих учителей географии к профессиональной деятельности. Рассмотрены научно-методические основы проведения практических занятий по общему землеведению в педагогических вузах, а также обозначены актуальные проблемы и пути их решения. Особое внимание уделено вопросам совершенствования системы подготовки будущих учителей географии к инновационной педагогической деятельности, организации практических заданий и требованиям, предъявляемым к студентам в процессе формирования профессионально-педагогической компетентности.

**Ключевые слова:** общее землеведение, география, практические занятия, научно-методическая деятельность, профессионально-педагогическая деятельность, учитель.

## KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari belgilab berilgan bo'lib, unda zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan va kreativ yondashuvchan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash jarayonini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni tubdan modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalari asosida yuqori bilim va ko'nikmaga ega bo'lgan mutaxassislar orqali ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish vazifasi belgilab qo'yilgan<sup>1</sup>.

1 O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2019-yil 8-avgustdagi PF-5847-sonli Farmoni.





Bugungi kunda oliy pedagogik ta'lim tizimi kadrlar tayyorlash milliy modelining eng muhim bo'g'ini sifatida isloh etilayotganligi bo'lg'usi geografiya o'qituvchilarini innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlashning ilmiy jihatdan tadqiq etish imkoniyatlarini yaratish bilan birga, ushbu muammoni nazariy hamda amaliy dolzarb vazifaga aylantirdi. Oliy ta'lim tizimida bo'lg'usi mutaxassislar, xususan, geografiya fani o'qituvchilarini tayyorlashda mutaxassislik fanlaridan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni yuqori ilmiy-metodik darajada tashkil etish orqali mazkur vazifani bajarishga erishamiz.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Umumiy Yer bilimi fanidan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish talabalardan ularni o'tkazish bo'yicha ilmiy va metodik jihatdan maxsus tayyorgarlik ko'rish zaruratini keltirib chiqaradi. Bu esa oliy ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan ta'lim – tarbiya jarayonida bo'lajak geografiya fani o'qituvchilarining pedagogik – psixologik, ilmiy-metodik tayyorgarligiga asos bo'ladigan o'quv fanlarni o'qitishda innovatsion muhit yaratishni metodik nuqtai nazardan tahlil qilish, ijtimoiy-pedagogik, didaktik shart-sharoitlarni yaratish va samarali tashkil etishning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqarishni taqozo etadi.

Bo'lajak geografiya o'qituvchilarining amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha metodik tayyorgarligini shakllantirishda mavzu mazmunini o'rganish va uni o'quvchilarga o'rgatishning turli usullari va vositalarini qo'llash yo'llarini o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. Amaliy mashg'ulotlarni muvoffaqiyatli tashkil etish orqali ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish, egallagan nazariy bilimlarini amaliy ko'nikmaga aylantirish va zaruriy sharoitda amaliyotga joriy qilish ko'nikmalarini shakllantirib borish kasbiy faoliyatga tayyorlashning ustuvor maqsadi qilib belgilash lozim.

Fan va texnika jadal rivojlanib borayotgan hozirgi sharoitda bo'lajak o'qituvchilarning amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha metodik tayyorgarligini shakllantirishda kasbiy-pedagogik tayyorgarlikning tarkibiy qismlari hisoblangan pedagogik-psixologik, ilmiy-nazariy va ilmiy-metodik tayyorgarlik kabilar bilan uzviylik va aloqadorlikni nazarda tutmoq lozim [4, 20-b].

Bizningcha, pedagogika oliy ta'lim muassasalarining faoliyatiga qo'yilayotgan ijtimoiy talablar asosida ta'lim mazmunining yangilanganligini inobatga olgan xolda bo'lajak geografiya o'qituvchisining Umumiy Yer bilimidan ilmiy-metodik (uslubiy) tayyorgarlik darajasini oshirib borish muhim sanaladi.

Yuqoridagilar bo'lajak geografiya o'qituvchilarini Umumiy Yer bilimidan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi bilan qurollantirish orqali kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik shart- sharoitlari, mazmuni, shakl, metod va vositalarini ishlab chiqish, amaliyotga tatbiq etish juda muhim ekanligini anglatadi.

Umumiy Yer bilimi fanidan kasbiy faoliyatga tayyorlash deganda, bo'lajak geografiya o'qituvchisining mazkur fandan egallagan ilmiy, nazariy, metodik, amaliy va psixologik tayyorgarligining uyg'unligi va o'zaro aloqasi tushuniladi.

Ma'lumki, pedagogika oliy o'quv yurtlarida o'qitish tizimini rivojlantirishning asosiy sharti ta'lim muassasalarida tayyorlanayotgan mutaxassis kadrlarning bilim darajasini, ilmiy dunyoqarashining shakllanganligi hamda kasbiga xos ko'nikma va malakalarni tarkib topganligi bilan baholanadi [2].

Shu sababli ham bo'lajak geografiya o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda Umumiy Yer bilimidan amaliy mashg'ulotlar o'tkazishning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq qilish dolzarb hisoblanadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Umumiy Yer bilimi fanidan kasbiy faoliyatga tayyorlash deganda, bo'lajak geografiya o'qituvchisining mazkur fandan egallagan ilmiy, nazariy, metodik, amaliy va psixologik tayyorgarligining uyg'unligi va o'zaro aloqasi tushuniladi.

Shuning uchun pedagogika oliy o'quv yurtlarida ham bo'lajak geografiya o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda Umumiy Yer bilimidan amaliy mashg'ulotlar o'tkazishning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq qilish dolzarb hisoblanadi [1, 7].

Aytish joizki, o'quv rejada amaliy mashg'ulotlarga keng o'rin berilgan. Geografik manbalar: globus, geografik karta, geografik atlash, turli statistik materiallar, jadvallar meteorologik asboblar yordamida o'lchov va kuzatish ishlarini olib borish, geoinfarmatsion tizimlarga oid amaliy topshiriqlar asosida talabalarning o'quv dasturida belgilangan mustaqil ishlari, ijodiy va tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishga asoslanib amaliy mashg'ulotlar mazmunini har tomonlama yoritilishiga atroflicha e'tibor qaratilgan.

Umumiy Yer bilimi yer sayyorasi tabiatining nima uchun xilma-xil ekanligi sabablari, qonuniyatlari va rivojlanish oqibatlarini tushintiradi. Masalan, nima sababdan ekvator atrofida yilning bitta fasli bo'lishi, o'rtacha kengliklar, ya'ni mo'tadil mintaqada to'rtta fasl ketma-ket almashinib kelishi, cho'l zonalarida yog'ingarchilik kam, aksincha tog'li hududlarda esa ko'p bo'lishi va uzoq vaqt saqlanib turishi, bitta iqlim mintaqasida bir

nechta tabiat zonasi tarkib topishi yoki bitta tabiat zonasi (masalan, cho'l, o'rmon) bir nechta iqlim mintaqasida uchrashini tushuntirib beradi.

Bo'lajak geografiya o'qituvchilari bularning barchasini to'la va mukammal anglab yetishlari uchun ma'ruza olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash ko'nikmasini egallamas ekan mavzuning mazmun-mohiyatini chuqur tushunib yetmaydi, ilmiy-nazariy ma'lumotlarni aniq anglab olishi qiyin bo'ladi, kasbiy tayyorgarligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham amaliy mashg'ulotlarni to'g'ri tashkil etish kerakki, zero u talabalarning fanga oid kompetentsiyalarini rivojlantirishga yordam bersin.

Pedagogik adabiyotlarda "amaliy mashg'ulot" tushunchasi keng talqin etilgan bo'lib, amaliy mashg'ulot deyilganda talabalarning ilmiy-nazariy, amaliy bilimlarini chuqur o'zlashtirishlariga, fanga oid muayyan metodlarni egallashiga yo'naltirilga mashg'ulotlar turi tushuniladi.

Bizningcha, amaliy mashg'ulotlar-nazariy va amaliyot birligi va aloqasini ta'minlovchi reproduktiv o'qitish metodlarini o'z ichiga olgan, talabalarda ma'ruzalarni tinglash va mustaqil ta'lim jarayonida olgan bilimlarini amalga qo'llay olish ko'nikma va malakalarini shakllantirishga imkon beradigan ta'lim shaklidir [6, 68-b.].

Umumiy Yer bilimidan amaliy mashg'ulotlarda ta'limning amaliy yo'nalganligi, bilimlarning shakllanishi, izchilligi, oliy o'quv yurtiga ijtimoiy moslashish (adaptatsiya), kasbiy faoliyatga tayyorgarlik, umumfuqarolik rolini bajarishi kabi tamoyillarga asoslanadi. Shu sababli geografiya ta'limida amaliy mashg'ulot darslarini tashkil etishda o'qitishning turli shakl, metod va vositalarini tanlash, ulardan metodik tizim sifatida samarali foydalanish orqali bo'lajak geografiya o'qituvchisini kasbiy shakllanishiga erishish mumkin [5, 388-b.].

Yuqoridagi muammolar yechimini topish va bo'lajak geografiya o'qituvchilarini innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirish maqsadida quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- bo'lajak geografiya fani o'qituvchilarini innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlashning tarixiy xususiyatlari va rivojlanish tendensiyalarini aniqlash;
- bo'lajak geografiya o'qituvchilarini innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash muammolarining hozirgi holati va asosiy yo'nalishlarini aniqlash;
- bo'lajak geografiya o'qituvchilarini innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlashning metodik tizimini yaratish va amalga oshirish;
- bo'lajak geografiya o'qituvchilarini innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlashning metodik vositalarini aniqlash;
- bo'lajak geografiya o'qituvchilarni innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimi samaradorligini aniqlash uchun zarur bo'lgan ilmiy-metodik vositalarni aniqlash;
- bo'lajak geografiya o'qituvchilarni innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimi samaradorligini tajriba- sinov orqali tasdiqlash.

Yuqoridagilarni amalga oshirish uchun pedagogika oliy ta'lim muassasasida bo'lajak geografiya o'qituvchilarini tayyorlash tizimi, bo'lajak mutaxassislarni kasbiy tayyorgarligiga qo'yilayotgan zamonaviy talablar va innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorgarligi o'rtaidagi o'zaro bog'liqlikka alohida e'tibor qaratish lozim. Chunki, o'qituvchining ilmiy-metodik tayyorgarligi kasbiy-pedagogik tayyorgarlikning tarkibiy qismlari ichida yetakchi o'rinda turadi. Bu o'z navbatida bo'lajak geografiya o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligini innovatsion faoliyatga yo'naltirish, uni pedagogik yangiliklarni qabul qilish, ta'lim maqsadlariga erishish yo'lida yangiliklarni o'z o'rnida to'g'ri va samarali qo'llay oladigan, kreativ fikrlaydigan ijodkor shaxs sifatida shakllantirish talabini keltirib chiqaradi.

Oliy o'quv yurtlarida bo'lajak o'qituvchilarning innovatsion ilmiy-metodik tayyorgarligini pedagogik faoliyatga yo'naltirib tayyorlashda innovatsion texnologiyalarni joriy etish mazkur jarayonining samaradorligini orttirishga zamin tayyorlaydi. Jumladan, Umumiy Yer bilimi fanidan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda innovatsion texnologiyalardan foydalanish, amaliy mashg'ulotlarda talabalar tomonidan bajariladigan o'quv topshiriqlarini berilishi, egallagan bilim va ko'nikmalardan yangi sharoitlarda to'g'ri foydalana olishi bo'lajak geografiya o'qituvchilarida metodik tayyorgarlikni shakllantiradi va mazkur tayyorgarlikni orttirish uchun zarur bo'lgan pedagogik shart-sharoitni vujudga kelishi uchun zamin tayyorlayda.

Ta'lim jarayonida talabalar o'quv fanlarni puxta va chuqur o'zlashtirishlari uchun qiziqtirib o'qitish va bilimlarni to'liq o'zlashtirishga erishish innovatsion pedagogik texnologiyaning asosiy mohiyatini tashkil etadi.

Pedagogik texnologiyani ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etishning asosiy maqsadi unda berilayotgan bilimlarni ko'pchilik qismi talabalar tomonidan puxta o'zlashtirishi hisoblanadi. Yuqorida keltirilgan vazifalarning muvaffaqiyatli hal etilishi esa o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik tayyorgarlik darajasiga bog'liq. Bu jarayon o'z navbatida geografiyaning ijtimoiy nufuzini oshirib, kadrlar tayyorlashning milliy modelini yaratishga xizmat qiladi. Ushbu vazifalar uzluksiz geografiya ta'limiga ham bevosita daxldor bo'lib, ularning muvaffaqiyatli hal



etilishi mazkur jarayonga nisbatan tizimli, majmuaviy yondashuvni taqazo etadi. Shu bois geografiya fanlar izchilligi, oddiydan murakkabga tomon borishi, uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash, nazariy bilim, ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalardan mavzu mazmuniga mos ravishda foydalanishga e'tiborning qaratilishi maqsadga muvofiq sanaladi.

Ushbu jarayon bo'lg'usi geografiya fani o'qituvchilarining ilmiy, ilmiy-metodik, pedagogik-psixologik tayyorgarligi hamda g'oyaviy-siyosiy va ma'naviy-ahloqiy kasbiy yetuklik darajasiga bevosita bog'liq.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Olib borgan tadqiqotimiz va uzluksiz ta'lim tizimida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorgarligi tahlili natijasida sohada yechimini kutayotgan quyidagi vazifalar aniqlanadi:

- uzluksiz geografik ta'lim, fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi o'zaro mustahkam integratsiyani yo'lga qo'yish;
- ta'lim-tarbiya mazmuni, tshkil etish shakli, foydalaniladigan metod va vositalarni tanlashda tabaqalashtirilgan yondashuvga e'tibor qaratish;
- bo'lajak geografiya fani o'qituvchisining kasbiy-pedagogik tayyorgarligini malaka talablari asosida tadqiq etish orqali nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish bilan mavjud tizim orasidagi nomutanosibliklar yechimini topish.

Yuqorida qayd etilgan vazifalarning muvaffaqiyatli hal etilishi, bo'lajak geografiya o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligi darajasiga bevosita bog'liqdir.

Bo'lajak geografiya fani o'qituvchisini kasbiy faoliyatini shakllantirish muammosining mustaqil va yaxlit tadqiqot mavzusi sifatida o'rganilishi ushbu masalaning dolzarb pedagogik muammo sifatida keng ko'lamda va chuqur tadqiq etishni taqazo qiladi. Ushbu maqsadda, o'qitishning turli shakl, samarali metod va vositalarni aniqlash, ulardan yaxlit metodik tizim sifatida unumli foydalanish orqali bo'lajak geografiya fani o'qituvchilarning innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlashga erishiladi.

Psixologlarning fikrlariga ko'ra, bo'lajak o'qituvchilar, jumladan geografiya fani o'qituvchilarini tayyorlashda amaliy mashg'ulotlar tizimi, amaliy topshiriqlar va ularni bajarishda talabalar quyidagi talablarga javob berishi kerak;

- 1) amaliy mashg'ulot mavzusining aniq maqsadini belgilash, qanday natijalar olishni bilishga intilish zarur, ya'ni loyihalash;
- 2) amaliy topshiriqlarni bajarish davomida ularni bajarishini qanchalik aniq va izchillik ketayotganligini kuza-tish;
- 3) amaliy mashg'ulot topshiriqlarni bajrinishini nazorat qilish va o'z faoliyatini amaliy mashg'ulotlar bajarish talablari bilan taqqoslab borishi;
- 4) qanday muvaffaqiyatlarga erishilganligi va qanday kamchiliklarga yo'l qo'yilganligini aniqlash;
- 5) amaliy mashg'ulotlarda berilgan topshiriqlar soni va ularning murakkablik darajasi talabalarining indi-vidual va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda berilib, bu topshiriqlar talabalarining nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish uchun yetarli ekanligiga e'tibor berish. Agar amaliy mashg'ulot topshiriqlari yetarli bo'lmasa talabalar egallagan ko'nikma mustahkamlanmaydi va tezda xotiradan chiqib ketadi. Haddan tashqari amaliy mashg'ulot topshiriqlarini ko'paytirib yuborilishi talabalarining e'tiborini pasaytirib yuboradi va ko'nikmalarni shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.
- 6) amaliy mashg'ulot uchun topshiriqlar tasodifiy va bir xil harakatlar bilan bajaradigan bo'lmasligi kerak. Uning asosida aniq belgilab olingan tizim, to'g'ri tanlangan bajarish ketma-ketligi, asta sekinlik bilan murak-kablashib borishi lozim;
- 7) amaliy mashg'ulotlarni bajarish jarayonida uzilishlarga yo'l qo'ymaslik kerak, aks xolda ko'nikma va malaka shakllanishi pasayadi, agar u mustahkamlanmagan bo'lsa tez pasayib boradi yok umuman yo'qolib ketadi <sup>[3]</sup>.

Albatta yuqorida berilganlar bo'lajak geografiya fani o'qituvchilari uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lib, kasbiy faoliyat shakllanishida asosiy o'rin egallaydi.

Ushbu jarayon bo'lg'usi geografiya fani o'qituvchilarining ilmiy, ilmiy-metodik, pedagogik-psixologik tayyorgarligi hamda g'oyaviy-siyosiy va ma'naviy-ahloqiy kasbiy yetuklik darajasiga bevosita bog'liq.



Uzluksiz ta'lim tizimida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining kasbiy- pedagogik faoliyatga tayyorgarlashda quyidagi vazifalar yechimini topishi lozim:

- uzluksiz geografik ta'lim, fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi o'zaro mustahkam integratsiyani yo'lga qo'yish;
- ta'lim-tarbiya mazmuni, tashkil etish shakli, foydalaniladigan metod va vositalarni tanlashda tabaqalashtirilgan yondashuvga e'tibor qaratish;
- bo'lajak geografiya fani o'qituvchisining kasbiy-pedagogik tayyorgarligini malaka talablari asosida tadqiq etish orqali nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish bilan mavjud tizim orasidagi nomutanosibliklar yechimini topish.

### XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida qayd etilgan vazifalarning muvaffaqiyatli hal etilishi, bo'lajak geografiya o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligi darajasiga bevosita ta'sir etadi.

Bo'lajak geografiya fani o'qituvchisini kasbiy faoliyatini shakllantirish muammosining mustaqil va yaxlit tadqiqot mavzusi sifatida o'rganilishi ushbu masalaning dolzarb pedagogik muammo sifatida keng ko'lamda va chuqur tadqiq etishni taqazo qiladi. Ushbu maqsadda, o'qitishning turli shakl, samarali metod va vositalarni aniqlash, ulardan yaxlit metodik tizim sifatida unumli foydalanish orqali bo'lajak geografiya fani o'qituvchilarning innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlashga erishiladi.

Pedagogika oliy o'quv yurtlarida bo'lg'usi geografiya o'qituvchilarini kasbiy-pedagogik faoliyatga yo'naltirishda mutaxassislik fanlaridan tashkil etiladigan amaliy mashg'ulotlar va ularni o'tkazish uchun tanlangan topshiriqlarni shunday tanlash kerakki, u nafaqat o'quv materialini chuqur o'zlashtirishga imkon bersin, balki maktab geografiya kursini muvaffaqiyatli o'qitish imkonini yaratishga ham xizmat qilsin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Baratov P., Sultanova N. Umumiy Yer bilimi. – T.: Info capital group, 2018. – 414 b.
2. Даринский А.В. Повышение квалификации педагогических кадров. Содержание работы курсов повышения квалификации руководящих и методических кадров школ. – Ленинград, 1976. – 97 стр.
3. Галай И.П. Методика обучения географии. – Минск, Аверсев, 2006. –157 стр.
4. Иноятлов У. Замонавий шароитда педагог кадрлар тайёрлаш: муаммо ва вазифалар // Педагогик таълим, илмий-услубий журнал. – Т. 2012 йил, 2-сон. – Б 17-20
5. Sultanova N.B. "Umumiy Yer bilimi" darslarida talabalarning o'quv faoliyatini tashkil etishda amaliy mashg'ulotlarning roli // Geografiya fani va raqamli iqtisodiyot. Xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. – Namangan, 2023. – B. 387-391.
6. Sultanova N.B. Using problems and exercises in organizing practical lessons // American Journal Of Social Sciences And Humanity Research (ISSN – 2771-2141). Volume 03, Issue 10. – USA, 2023. – P. 67-74.
7. Талызина Н.Ф. Управление процессом усвоения знаний. –М.: Изд-во МГУ. 1984. –142 с.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari





# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №10**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.